

## MAVLONO YA'QUBI CHARXIY MA'NAVIY MEROSINING TARBIYAVIY AXAMIYATI

*Ilmiy rahbar: Samatov. X.U*  
*TATU Samarqand filiali*  
*TATU SF KI 23-04 guruh talabasi*  
*Ashirboyeva Sevinch*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Movlono Ya'qubi Charxiy ma'naviy merosining tarbiyaviy axamiyati va uning adabiyotshunoslikda tutgan o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Mavlono Yaqubi Charxiy, Movarounnahr,

Mavlono Ya'qubi Charxiy 1363-yilda G'azna hozirgi Afg'oniston shahrining tobe Charx qishlog'ida dunyoga kelgan. Shu sababli ham Charxiy taxallusini olgan. Mavlono Ya'qubi Charxiy o'z davrining ko'zga ko'ringan faqih va [avliyolaridan bo'lgan](#). Mavlono Ya'qubi Charxiy XV asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashagan naqshbandiya ta'limotining yirik vakillaridan Xoja Ahrori Valiyning ustози bo'lgan. Manbalarning guvohlik berishicha, u o'z davridagi ilmlarni egallagach, ko'nglida tasavvufga nisbatan xohish paydo bo'lib, Buxoroga keladi va Xo'ja Bahovuddin Naqshband bilan uchrashadi. Bu voqealarning tafsiloti uning "Risoi unsiya" ya'ni "Do'stlik haqida risola" nomli kitobida bayon qilingan. Mavlono Ya'qubi Charxiy Xo'ja Bahovuddin Naqshbandga shogirt tushishga qaror qiladi. Bir necha sinovlardan so'ng, Xo'ja Bahovuddin Naqshband Charxiyni shogirdlikka qabul qiladi va so'fiylik ta'limoti bilan tanishtiradi va Charxiyni o'zining shogirdi va kuyovi Xo'ja Alouddin Attor tarbiyasiga topshiradi. Buxoroda Ya'qub Charxiy tasavvuf sohasida tez orada ma'naviy kamolot topadi va Chag'oniyonda faoliyat ko'rsata boshlaydi. Ya'qub Charxiy Naqshband ko'rsatmasiga muvofiq xalqni haq yo'liga da'vat qila boshlaydi. O'z asarlari va yetishtirgan shogirdlari bilan shuhrati har tomonga tarqaladi. U asosan Movarounnahrda Ulug'bek va Xurosonda Shohruh davrlarida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik Naqshbandiya ta'limotining XV asrdagi eng yirik namoyandasi bo'lib tanilgan Nasiriddin Ubaydulloh (Xoja Ahrori Valiy) Charxiyning shon-shuhratini eshitib, u bilan uchrashishga oshiqadi va oqibat-natijada uni pir tutib, unga shogird tushadi. Bu voqeaning tafsiloti "Rashahot"da bayon qilingan. Charxiy XV asrda Temuriylar davridagi tasavvuf, xususan Naqshbandiya ta'limotining yirik vakillaridan biri sifatida nom qozonadi. Bu haqda turli manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. Mashhur Abdurahmon Jomiy o'zining "Nafohot ul-uns" kitobida Ya'qub Charxiy faoliyatini va tasavvufni targ'ib qilish sohasidagi xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tadi va Xoja Ahrori Valiy bilan ustoz-tolib munosabatlarini tilga oladi. Mavlono Ya'qub Charxiy o'z ustози Xoja Bahovuddin Naqshbandning "mendan

nimaiki senga yetgan bo'lsa boshqalarga yetkaz", degan amrlariga farmonbardor bo'lib, hozir bo'lganlarga xitob (so'zlash) orqali, g'oyibdagilarga kitob orqali yetkazishga harakat qildi. Naqshbandiya ta'riqati „Silsilayi sharif“idagi o'n sakkizinchi halqaning piri murshidi, buyuk avliyo Movlono Ya'qubi Charxiy, Qur'oni Karimni tafsir etgan alloma, adib, faqih, atoqli tarbiyachi bo'lganlar. [Xo'jagon-naqshbandiya tariqati](#) rivojiga katta hissa qo'shgan Hazrat Mavlono Ya'qubi Charxiy to'g'risida Jomiyning “Nafohat ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Ali Safiyning “Rashhotu ayn ul-hayot”, Nosiriddin To'raning “Tuhfat az-zoirin” va boshqa asarlarda ma'lumotlar uchraydi. Mavlono Ya'qubi Charxiy Balx, Misr, Buxoroyi sharif madrasalarida ta'lim olgan. Diniy va dunyoviy ilmlarni egallagan zot bo'lgan. Mavlono Ya'qub Misrda Hazrat Shayx Zayniddin Xavofiy bilan hamsaboq bo'lgan. Hazrat Ya'qub Charxiy ko'pgina asarlarning muallifi sifatida dunyoga mashhur bo'lganlar.

Mavlono Ya'qub Charxiy Naqshbandiya ta'limoti, turli diniy ilmga oid bir qancha asarlar yozadiki, bu yerda ularning ro'yxatini keltirib o'tilgan:

1. “Tafsiri Charxiy” (“Charxiyning Qur'onga qilgan tafsiri”).
2. “Risolai unsiya” (“Do'stlik haqida risola”).
3. “Ar-risolat ul-abdoliya” (“Abdollar haqida risola”).
4. “Risola dar siyrati Mustafaviya va tariqai mustaqimiya” (“Mustafoning siyratlari va to'g'ri yo'llar haqida risola”).
5. “Risola dar ilmi faroyiz” (“Farz narsalar haqida risola”).
6. “Risola dar aqoid” (“Aqoid ilmi haqida risola”).
7. “Risola fi-l-hisob va-l-faroyiz” (“Hisob va meros taqsimi haqida risola”).
8. “Muxtasar dar bayoni silsilai Nahshbandiya” (“Naqshbandiya suluki haqida qisqacha risola”).
9. “Sharhi asmoullah” (“Alloh ismlarining sharhi haqida risola”).
10. “Sharhi nuvadu nuh nom” (“Allohning to'qson to'qqiz ismining sharhi”).
11. “Faroyizi manzuma” (“Nazmiy farz narsalar haqida”). Charxiyni ko'pchilik faqat Qur'oni karimga tafsir yozgan olim sifatidagina taniydi. Haqiqatan uning maqbarasi peshtoqiga “tafsirchi olim” deb yozib qo'yilgan. Asarlari ro'yxatidan ko'rinib turganidek, Charxiy Naqshbandiya silsilasini bayon qiluvchi alohida risola ham yozgan. Bundan tashqari u “Risolai unsiya” ma'nosi “Do'stlik haqida risola” ni yozdiki, unda Xo'ja Bahovuddin bilan uchrashgani, uning ta'lim-tarbiyasi va tariqat yo'lida buyurgan ishlarini mukammal bayon qilib, o'z ustozlarining nomi va shuhratlarini yoyishga xizmat qildi. Shuningdek, uning qalamiga meros haqidagi risola ham mansubdir. Hazrat Ya'qubiy Charxiyning juda ko'p murid-shogirdlari bo'lgan. Eng yetuk shogirdi buyuk avliyo Hazrat Xo'ja Ahrori Valiy hisoblanadi. Hazrat Mavlono Ya'qubi Charxiy hijriy 851, millodiy 1447-yil [Dushanbeda](#) vafot etadi. U Movarounnahr va Xurosonda tasavvufning hayotiy yo'nalishlaridan bo'lmish

Naqshbandiya ta'limotining keng yoyilishi va bu bilan umumiy madaniy yuksalish ishi yo'lida xizmat qildi va bu yo'lda o'z hissasini qo'shdi. Qabri obod ziyoratgohdir. Navoiy viloyatining Qiziltepa Tumani, Vang'ozi qishlog'ida, shuningdek, Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Yangibozor qishlog'i va Vobkent tumanlarida Hazrat Mavlono Ya'qubi Charxiyning qadamjo-ziyoratgohlari mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev N. Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi. Buxoro: Buxoro nashriyoti, 1993.
2. Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. Buxoro: Durdoni nashriyoti, 2012.
3. Faxriddin Ali Safiy. Rashahot, T., 2003;
4. Ma'naviyat yulduzlari, T., 2001;
5. Xo'ja Ahror Valiyning Markaziy Osiyo tarixi va ma'naviyatida tutgan o'rni (Ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalari tezislari), T., 2004.